


SURXONDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

*2022- yil 1- noyabr holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*




Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.

Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.


Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.




Mamlakatimizda qulay ishbilamonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)






Mas'uliyati cheklangan jamiyat birlik



Xususiy korxonona birlik



Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra)

birlik




o'tgan yilga nisbatan




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.



Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; - aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.


Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni

(yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi


(2022- yil yanvar-oktabr oylarida, umumiy sonidagi ulushi, foizda)



2022- yil yanvar-oktabr oylarida, 3 762 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar - 2 305 ta, oilaviy korxonalar - 776 ta, xususiy korxonalar - 436 ta, muassasalar - 143 ta va boshqalar - 102 tani tashkil etdi.

Oilaviy korxonalar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 6 311 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 522 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 5 698 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 378 taga yoki 1,1 martaga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 776 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 305 taga yoki 0,7 martaga kamayganligini ko'rish mumkin.


Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 14 142 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 187 taga yoki 18,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 375 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 976 taga yoki 17,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 305 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 253 taga yoki 9,9 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, 638 tani tashkil etib, ulardan 615 tasi yoki 96,4 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda ro'yxatdan o'tgani 67 taga yoki 111,7 % ga, faoliyat ko'rsatayotgani 60 taga yoki 110,8 % ga ortganligini ko'rish mumkin.

2022- yil yanvar-oktabr oylarida viloyatimizda 73 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)





Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

11



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni


(1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	5 509	7 432	9 043	11 399	13 375
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	607	788	1 184	1 628	2 066
sanoat	883	1 198	1 427	1 810	1 918
qurilish	931	1 345	1 510	1 804	2 033
savdo	1 621	2 244	2 825	3 642	4 468
tashish va saqlash	500	580	625	658	677
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	210	292	348	426	507
axborot va aloqa	78	99	110	142	168
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	65	93	107	152	193
boshqa turlar	614	793	907	1 137	1 345

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

12




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil	2022- yil
Jami	161	320	399	555	615
<i>shu jumladan:</i>					
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	49	83	102	122	129
sanoat	50	84	111	135	132
qurilish	11	17	21	39	42
savdo	31	89	118	197	239
tashish va saqlash	5	7	7	9	12
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	2	16	17	22	24
axborot va aloqa	1	2	2	2	2
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	4	4	7	8
boshqa turlar	11	18	17	22	27

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)

14

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Surxondaryo viloyati	615	148	467
Termiz sh.	355	35	320
tumanlar:			
Oltinsoy	6	5	1
Angor	22	6	16
Bandixon	4	2	2
Boysun	9	6	3
Muzrabot	16	7	9
Denov	22	11	11
Jarqo'rg'on	15	9	6
Qumqo'rg'on	15	7	8
Qiziriq	10	1	9
Sariosiyo	21	11	10
Termiz	50	15	35
Uzun	42	20	22
Sherobod	13	6	7
Sho'rchi	15	7	8

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, birlikda)




2022-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni 32 777 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz shahri (18,0%), Denov (11,6%), Jarqo'rg'on (8,1%), Sho'rchi (6,9%), Qumqo'rg'on (6,8%), Sherobod (6,7%), Termiz (6,5%), Uzun (5,2%), Sariosiyo (5,2%), Angor (4,8%), Boysun (4,7%), Qiziriq (4,7%), Muzrabot (4,7%), Oltinsoy (3,9%) va Bandixon (2,2%) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni


(2022-yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)

2022-yil yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 3 762 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda ularning Termiz sh. (16,4%), Denov (11,1%), Sherobod (8,3%), Jarqo'rg'on (7,8%), Sho'rchi (6,6%), Qumqo'rg'on (6,5%), Boysun (5,7%), Angor (5,2%), Sariosiyo (5,2%), Muzrabot (5,1%), Uzun (4,8%), Termiz (4,7%), Oltinsoy (4,4%), Bandixon (4,2%) va Qiziriq (4,0%) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.




Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimida soni

(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni


(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, birlikda)



2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 375 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Termiz sh. (25,5 %), Denov (9,7 %), Termiz (8,6 %), Jarqo'rg'on (7,3 %), Sherobod (6,8 %), Qumqo'rg'on (5,7 %), Sho'rchi (5,6 %), Boysun (5,0 %), Angor (4,8 %), Qiziriq (4,5 %), Muzrabot (4,3 %), Sariosiyo (4,2 %), Uzun (3,4 %), Bandixon (2,3 %) va Oltinsoy (2,3 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarga taqsimlanishi


(2022- yil 1- noyabr holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalarining hududlar bo'yicha soni


(2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)




2022- yil yanvar-oktabr oylarida, yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 776 tani tashkil etib, jamiga nisbatan hududlar kesimida taqsimlanganda, Denov (12,1 %), Oltinsoy (11,2 %), Boysun (10,4 %), Termiz sh. (8,1 %), Sherobod (7,0 %), Qiziriq (6,8 %), Jarqo'rg'on (6,4 %), Sariosiyo (5,5 %), Uzun (5,2 %), Muzrabot (5,0 %), Angor (4,9 %), Bandixon (4,8 %), Sho'rchi (4,8 %), Termiz (4,3 %) va Qumqo'rg'on (3,5 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2022- yil yanvar-oktabr oylarida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- oktabrdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275- sonli qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

The screenshot displays the official website of the State Statistical Committee of the Republic of Uzbekistan. The header features the national emblem, the organization's name in Uzbek and English, and navigation links. The main content area is titled 'Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri' (Unified State Register of Enterprises and Organizations). A dropdown menu is open, listing services such as 'Xizmatlar ro'yxati' (List of services), 'Elektron hisobot' (Electronic reporting), and 'Korxonalar pasporti' (Enterprise passport). The main form includes fields for 'STIR kodini kiriting' (Enter STIR code) and 'Rasmdagi kodni kiriting' (Enter code from the photo), with a 'Qidiruv' (Search) button. The left sidebar contains 'RASMIY STATISTIKA' (Official Statistics) and the right sidebar contains 'FOYDALI MA'LUMOTLAR' (Useful Information).

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Statistik registrlarni
yuritish bo'limi
Tel. (76) 225-65-90**